XALQ DEPUTATLARI QUVASOY SHAHAR KENGASHINING
Q A R O R I

2023 - yil 29 - dekabr VI-63-91-11-167-K/23 Quvasoy shahar hokimligi

Quvasoy shahrining 2024-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 24-moddalari, Byudjet kodeksining 27-, 99-moddalari, “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi 2023-yil 26-dekabrdagi O‘RQ-886-son Qonuniga muvofiq hamda O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasining 2023-yil 7-noyabrdagi 02-1160-sonli va Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2023-yil 27-dekabrdagi 03/01-02-01-18/4616-sonli xatlarini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 24-moddalariga asosan xalq deputatlari shahar Kengashi,

Q A R O R Q I L A D I :

1. Xalq deputatlari Farg‘ona viloyat Kengashining 2023-yil 27-dekabrdagi “Farg‘ona viloyatining 2024-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-63-125-11-/23 sonli sessiya qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur Qonunga muvofiq, Quvasoy shahar mahalliy byudjetining 2024-yilgi daromadlari **114,8 mlrd.so‘m** va harajatlari **156,3 mlrd.so‘mga** ma’lumot uchun qabul qilinganligi hamda respublika byudjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar **41,5 mlrd.so‘m** miqdorida tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

3. Qarorga asosan 2024-yilda:

a) Mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i va alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘idan tushumlar 2023-yil 1-iyul holatiga ko‘ra

tuman va shahar aholisining viloyat aholisidagi ulushiga muvofiq o‘tkazib berilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

b) Quyidagi soliq turlari tuman va shahar mahalliy byudjetiga to‘liqligicha o‘tkazib berilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

- jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;
- jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;
- aylanmadan soliq;
- yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘i;
- davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari;

v) Shahar va tumanlar mahalliy byudjetlariga quyidagi ulushlarda:

Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq turidan tushumlarning 50 foizi;

Yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasi qilishdagi aksiz solig‘idan tushumlarning 20 foizi;

yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni sotishdan tushgan pul mablag‘larining 50 foizi;

yuridik shaxslarning yer solig‘i va mol-mulkiga solinadigan soliq hamda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq turidan tushgan tushumlarning 50 foizi;

davlat byudjetiga undiriladigan jarimalarning 30 foizi;

Jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig‘idan tushumlarning (yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘idan tashqari) 50 foizi o‘tkazib berilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin;

4. Shahar mahalliy byudjeti daromadlarining 2024-yil uchun prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

5. Shahar mahalliy byudjetidan 2024-yilgi hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. Qonunning 8-moddasiga muvofiq zaxira jamg‘armalari mahalliy byudjetlarning tasdiqlangan harajatlarining kamida 1 foizi miqdorida shakllantirilishi belgilanganligidan kelib chiqib, 2024-yil uchun shahar

mahalliy byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmlari 1,3 mlrd.so‘m miqdorida tasdiqlansin.

Shahar hokimligi zaxira jamg‘armasi mablag‘larini shahar byudjetida ko‘zda tutilmagan, kechiktirib bo‘lmaydigan harajatlarni, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishini ta’minlasin.

7. Qarorga ko‘ra 2024-yil uchun shahar byudjetida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar o‘tgan yilga nisbatan o‘zgarishsiz ya’ni 900 mln.so‘m miqdorda belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

8. Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar 3-ilovaga hamda jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

9. Shahar mahalliy byudjeti daromadlarning prognoz ko‘rsatkichlari hokimlikning faoliyatiga bog‘liq bo‘lmagan holda 5 foizdan ortiq miqdorga bajarilmasa va moliya yili oxirigacha ushbu mablag‘larning tushish ehtimoli bo‘lmasa, viloyat hokimligiga harajatlarni maqbullashtirish yuzasidan ko‘rilayotgan choralar bilan birgalikda tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorini oshirish yuzasidan viloyat hokimligiga murojaat qilishi qonun bilan belgilanganligi inobatga olinsin.

10. Shahar hokimligi tashabbusi bilan qo‘shimcha amalga oshiriladigan tadbirlar uchun talab etiladigan mablag‘lar mahalliy byudjetning ijrosi davomida shakllangan qo‘shimcha manbaalar hisobidan amalga oshirilishi qat’iy belgilab qo‘yilsin.

11. Shahar hokimligi hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar bilan birgalikda:

- tegishli byudjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarini yetarli darajada rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirilishini ta’minlash;

- mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilinadigan

tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan obyektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarini moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10-sanasiga qadar hokimliklar tomonidan majburiy tartibda o‘z rasmiy veb-saytlariga joylashtirish;

- mahalliy byudjetning qo‘shimcha daromadlarini 30 foizidan kam bo‘lmagan miqdorlarda jamoatchilik fikri asosida belgilangan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirishni, veb-saytlariga ularning natijalarini joylashtirsin.

12. Shahar Iqdisodiyot va moliya bo‘limi (Sh.Tojimamatov)ga:

- Xalq deputatlari shahar Kengashining 2023-yil 31-oktabr kungi Quvasoy shahrida aholi salomatligini mustahkamlash borasida 2023-yilning to‘qqiz oyi mobaynida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risidagi VI-61-78-11-167-K/23-sonli qarori 6-bandida ko‘rsatib o‘tilgan shahardagi yangi tashkil etilgan poliklinikalarga belgilangan tartibda 2024-yil mobaynida shtat birligi ajratilish choralarini ko‘rilsin;

- 2024-yil daromadlar rejasini chorak va yil davomida bajarilmagan qismi bo‘yicha viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi va viloyat soliq boshqarmasi bilan kelishgan holda daromadlar rejasiga aniqlik kiritib borilsin;

13. Shahar hokimligi byudjet daromadlari va xarajatlarining ko‘rsatkichlarini bajarilishini ta’minlash, soliq bazasini kengaytirish hamda iqtisodiy salohiyatini oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko‘rish, byudjet mablag‘lari taqsimlovchilarning byudjet mablag‘laridan samarali va maqsadli foydalanilishi hamda erishilgan natijalar Kengashga kiritib borilishini ta’minlasin.

14. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari shahar Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi hamda shahar hokimligi zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **Z.K.To'rakulov**

Xalq deputatlari Quvasoy shahar
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-63-91-11-167-K/23-son qaroriga
1-ilova

Quvasoy shahar mahalliy byudjeti daromadlarining 2024-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

T/R	Daromad turlari	Jami
	Jami daromadlar	**114 855 776**
I.	**Rag‘batlantiruvchi (Stimuliruyushiye) daromad**	**44 718 000**
	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	44 718 000
	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	
II.	**Biriktirilgan daromadlar**	**53 006 300**
	Tuman va shaharlarga biriktirilgan	**22 642 000**
1	Yagona soliq to‘lovi	6 428 000
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i (ITD)	420 000
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	9 660 000
5	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	5 891 000
6	Ijara to‘lovlari	243 000
	Viloyat va tuman (shahar)lar byudjetlari o‘rtasida taqsimlanadigan daromadlar	**30 364 300**
1	Benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasidan soliq (AZS)	3 086 000
2	Noruda qurilish materiallari bo‘yicha yer qaridan foydalanganlik uchu soliq	6 620 500
3	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	6 408 500
4	Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig‘i	10 986 000
5	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	2 207 000
6	Jarimalar	1 056 300
III.	**Mahalliy byudjet prognozi**	**97 724 300**
IV.	**Tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar**	**58 591 933**
	Shundan, Transfert	**41 460 457**
	aksiz solig‘i tushumlari hisobidan ajratiladigan mablag‘lar	17 131 476
	Aholi soni (ming kishi)	***100***
1	Alkogolga aksiz solig‘i (shu jumladan pivo)	7 425 937
2	Mobil aloqaga aksiz solig‘i	2 991 182

3	Tamaki mahsulotlari bo‘yicha aksiz solig‘i	6 714 357

Xalq deputatlari Quvasoy shahar
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-63-91-11-167-K/23-son qaroriga
2-ilova

2024-yil uchun Quvasoy shahar byudjetidan hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilarga ajratilgan mablag‘larining kiritilgan o‘zgarishlar bilan cheklangan miqdorlari

ming so‘mda

T/r	Shahar byudjetidan mablag‘ oluvchi hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Biriktirilgan tashkilotlar va tadbirlar nomi	Summa
1.	Maktabgacha va Maktab ta’limi bo‘limi	Maktabgacha ta’lim muassasalari	9 968 478,0
		Umumiy o‘rta ta’lim maktablari va ayrim fanlarga ixtisoslashtirilgan umumta’lim maktablari	9 856 922,0
		“Barkamol avlod” bolalar markazi	
		Xalq ta’limi bo‘limlari	
2.	Tibbiyot birlashmasi	Poliklinikalar, markazlar va dispanserlar	61 627 329,0
		Qishloq vrachlik punktlari	
		Tez yordam va kechiktirib bo‘lmaydigan tibbiy yordam stansiyalari	
		Koykali klinikalar, kasalxonalar, tibbiyot birlashmalari va markazlar	
		Tez hamda shoshilinch tibbiy yordam hududiy bo‘limlari	
		Koykali va koykasiz maxsus markazlar, kasalxonalar va dispanserlar	
		Tug‘ruqxonalar, akusherlik majmualari	
		Davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati markazlari	
		Sanitar ta’lim va tibbiy statistika muassasalari	
3.	Madaniyat bo‘limi	Madaniyat bo‘limi	1 609 189,0
		Bolalar musiqa va san’at maktabi	3 294 151,0
4.	Yoshlar siyosati va sport bo‘limi	Bolalar va o‘smirlar sport maktablari	5 730 528,0
		Yoshlar ishlari agentligi tuman (shahar) bo‘limlari saqlash xarajatlari	3 100 249,0
5.	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limini saqlash xarajatlari	1 828 039,0
6.	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limlarini saqlash xarajatlari	1 076 755,0
		Fermer xo‘jaliklarida buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish markazlarining saqlash xarajatlari	220 533,0
7.	Irrigatsiya bo‘limi	Suv xo‘jaligi tizimi tashkilotlarini saqlash xarajatlari	2 071 719,0
8.	Iqtisodiyot va moliya bo‘limlarini saqlash xarajatlari	Iqtisodiyot va moliya bo‘limlarini saqlash xarajatlari	1 929 400,0
9.	Davlat soliq inspeksiyasi	Davlat soliq inspeksiyasi tuman (shahar) bo‘limlari saqlash xarajatlari	3 897 414,0

10.	Hokimyat	Hokimliklarni saqlash xarajatlari	4 503 483,0
		Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	59 381,0
		Hokimliklarning zahira jamg‘armalari	1 386 175,0
		Axborot kutubxona markazlari	666 743,0
		Fuqarolarning tashabbusli jamg‘armalari	16 312 529,0
		Xalq deputatlari Kengashi kotibiyati	231 998,0
		Hokim yordamchilarini saqlash qarajatlari	3 160 733,0
		Mahalla byudjeti	1 079 899,0
		Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga “dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi”	18 200,0
		Hokimlik ijtimoiy ko‘nikma markazi bo‘limlari	98 021,0
10.	Shahar hokimligi (Obodonlashtirish boshqarmasi)	Nazoratsiz hayvonlarni tutish bilan bog‘liq xarajatlar	
		Shahar hududidagi shahar ko‘chalari va shahar posyolka ko‘chalari yo’llarini loyihalashtirish, qurish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash xarajatlari	4 000 000,0
		Shaharlarni obodonlashtirish	18 588 365,0
	Harajatlar jami:		**156 316 233,0**

Xalq deputatlari Quvasoy shahar
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-63-91-11-167-K/23-son qaroriga
3-ilova

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar

ming so‘mda

T/r	MFY lar nomi	Koeffisiyent (0,7 dan 3,0 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2024-yil uchun (1 ga uchun)
1.	Arsif MFY	0,70	25 900
2.	Qalacha MFY	0,70	25 900
3.	Yangi obod MFY	0,70	25 900
4.	Yuqori Muyan MFY	1,00	37 000
5.	Muyan MFY	1,00	37 000
6.	Isfayramsoy MFY	1,00	37 000
7.	Kokilon MFY	1,00	37 000
8.	Pakana MFY	1,00	37 000
9.	Do‘stlik MFY	0,70	25 900
10.	Qo‘chqorchi MFY	0,70	25 900
11.	Namuna MFY	0,70	25 900
12.	Bo‘ston MFY	0,70	25 900
13.	Valik MFY	0,70	25 900
14.	Pastki Valik MFY	0,70	25 900
15.	Nayman MFY	0,70	25 900
16.	Sufon MFY	0,70	25 900
17.	A.Temur MFY	1,10	40 700
18.	M.Ulug‘bek MFY	1,10	40 700
19.	Xuvaydo MFY	1,10	40 700
20.	A.Navoiy MFY	1,10	40 700
21.	Cho‘lpon MFY	1,10	40 700
22.	Lashkar MFY	1,10	40 700
23.	Bog‘bon MFY	1,10	40 700
24.	Polmon MFY	1,10	40 700
25.	Zebuniso MFY	1,10	40 700
26.	Soy bo‘yi MFY	1,10	40 700
27.	Yoshlik MFY	1,10	40 700
28.	Ziynat MFY	1,10	40 700
29.	X.Olimjon MFY	1,10	40 700
30.	Guliston MFY	1,10	40 700
31.	Xamdo‘stlik MFY	1,10	40 700

Xalq deputatlari Quvasoy shahar
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-63-91-11-167-K/23-son qaroriga
4-ilova

Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar

ming so‘mda

T/r	MFY lar nomi	Koeffisient (0,7 dan 3,0 gacha)	Er solig‘i stavkasi 2024-yil uchun (1 kv uchun)
1.	Arsif MFY	0,70	245,0
2.	Qalacha MFY	0,70	245,0
3.	Yangi obod MFY	0,70	245,0
4.	Yukori Muyan MFY	1,00	350,0
5.	Muyon MFY	1,00	350,0
6.	Isfayramsoy MFY	1,00	350,0
7.	Kokilon MFY	1,00	350,0
8.	Pakana MFY	1,00	350,0
9.	Do‘stlik MFY	0,70	245,0
10.	Qo‘chqorchi MFY	0,70	245,0
11.	Namuna MFY	0,70	245,0
12.	Bo‘ston MFY	0,70	245,0
13.	Valik MFY	0,70	245,0
14.	Pastki Valik MFY	0,70	245,0
15.	Nayman MFY	0,70	245,0
16.	Sufon MFY	0,70	245,0
17.	A.Temur MFY	1,10	385,0
18.	M.Ulug‘bek MFY	1,10	385,0
19.	Xuvaydo MFY	1,10	385,0
20.	A.Navoiy MFY	1,10	385,0
21.	Cho‘lpon MFY	1,10	385,0
22.	Lashkar MFY	1,10	385,0
23.	Bog‘bon MFY	1,10	385,0
24.	Polmon MFY	1,10	385,0
25.	Zebuniso MFY	1,10	385,0
26.	Soy bo‘yi MFY	1,10	385,0
27.	Yoshlik MFY	1,10	385,0
28.	Ziynat MFY	1,10	385,0
29.	X.Olimjon MFY	1,10	385,0
30.	Guliston MFY	1,10	385,0
31.	Xamdo‘stlik MFY	1,10	385,0

Izoh: *Shaharlar va tumanlar Kengashlari tomonidan yuridik shaxslar uchun yer solig‘i stavkasini mahalla fuqarolar yig‘inlari kesimida tuman (shahar) markazlari uzoq-yaqinligiga qarab, 0,7-3,0 kaytiruvchi va ko‘paytiruvchi koeffitsiyentlarni belgilash huquqiga ega.*